

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIDA
TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI AUDIO-LINGUAL
METOD ORQALI SHAKILLANTIRISH**

Razakova Nargiza

SamDCHTI akademik litseyi ingliz tili fani o‘qituvchisi

Farmonov Alovuddin

SamDCHTI Ingliz tili-1 fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang‘ich ta’limda asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakillantirishda audio-lingual metodni qo‘llash usullari va samaralari natijalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, tinglash qobiliyati, Audio-Lingual metod, grammatik tuzilmalar.

Chet tilini o‘rgatishda to‘rtta asosiy qobiliyatlardan biri bu tinglab tushunishdir. O‘qish va yozish boshlang‘ich ta’limning ilk kunlaridan boshlab o‘rgatiladigan vazifalardan biridir, biroq o‘quvchilar tinglashnisni sal keyinroq boshlashlari bu ko‘nikmani o‘rgatishda qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi.O‘quvchilarni tinglashga o‘rgatish shart va zarur, chunki tinlashni bilmagan o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda eta olmaydilar.[1] Tinglab tushunishning muvaffaqiyati bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimlari tinglovchining individual yoshxususiyatlari, idrok qilish sur’ati, sharoiti (tezlik, axborotlar miqdori va xajmi, idrok qilish tayanchlari) kabilarni kiritish mumkin.

Tinglab tushunish nutq faoliyatining o‘qish va gapirish turlari bilan chambar-chas bog‘liq. Shu tufayli nutq faoliyati turlarining o‘xshashlik va farqlovchi xususiyatlari bor. Bular quydagilar:

- tinglab tushunish o‘qish axborot qabul qilishga qaratilganligi uchun ham nutq faoliyatining retseptiv turlariga kiradi;
- nutq faoliyatini bu turi oldindan bilish, faraz qilish hisoblanadi.

Tinglab tushunish uchun quyidagi psixologik mexanizimlar xizmat qiladi: nutqni tinglash qobiliyati, diqqatni uzoq muddatli va qisqa muddatli xotira, oldindan faraz qilish va fahmlash. Tinglab tushunish jarayonida diqqat muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar nutqini ona tilida tinglagan paytda ularning diqqati asosan nutqning mazmuniga qaratilgan bo‘ladi. Chet tilidagi nutqni tinglab tushunish esa

o‘quvchilardan diqqatni nutq mazmuni va shakliga qaratishlarini taqazo etadi. O‘quvchilarni ko‘nikma va malakalarini maxsus mashqlar yordamida shakillantiriladi va rivojlantiriladi. Shakl va mazmunni bad-barobar idrok qilish asta-sekin bosqichma bosqich amalgam oshiriladi. O‘quvchilar avval shaklga e’tibor beriladigan mashqlarni bajaradilar. Asta-sekin mazmunga e’tibor orttirib boriladi y’ani o‘quvchilar nutq mashiqlarini bajaradilar. Nutqni tinglab tushunish chegaralangan vaqtida amalga oshiriladi. Vaqtni qisqaligi va nutqni qabul qilishning qaytarilmasligi nutqni idrok qilishni va tushunishni qiyinlashtiradi bu esa diqqatni mushohada qilishni va tushunishga asoslangan xotiraning faol ishlashini talab qiladi. Tinglab tushunish mexanizmlaridan eng muximlaridan yana biri bo‘lgan xotira ikki turdan iborat: Uzoq mudatli va qisqa muddatli xotiralardir.[3] O‘qituvchilarga ustozlarini tinglashni o‘rgatishda yordam berish uchun, o‘qituvchilar o‘zlarining o‘quv materiallarini taqdim etish uchun qiziqarli o‘qitish usulidan foydalanishlari mumkin, bunda ularga qiziqarli sinfxona yaratishda ham yordam berish zarur. Muqobil usullardan biri audio-lingual hisoblanadi.[1]

Audiolingual metod - chet tilidagi og‘zaki nutqni o‘rgatish usuli bo‘lib, u nutq namunalarini takroriy tinglash va talaffuz qilishga asoslangan. Ushbu usul bilan idrokning eshitish kanaliga tayanish mavjud. Ch.Friz tilni og‘zaki muloqot jarayonida qo‘llaniladigan belgilar tizimi deb hisoblaydi. Suhbatdoshlar, insoniy odatga ko‘ra, navbati bilan gapirish va bir-birini tinglab tushunishga harakat qilishadi. Hayotiy tajribadan ma’lumki, o‘z fikrini og‘zaki bayon etish (gapirish) ko‘pchilik yoqtiradigan nutq faoliyatining turidir. O‘zga shaxsni tinglab tushunish orqali turli axborot olinadi. Nutqiy muloqotda bo‘lish odam uchun zaruriy ehtiyoj sanaladi. Tinglash jarayonida so‘zlovchining ifoda etmish mulohazalarini qisman yoki to‘la-to‘kis tushunib yetmaslik hollari bo‘lib turadi. Buning asosiy sababi tinglab tushunishni o‘rgatishga yetarli e’tibor berilmaslidadir. Nutqni tinglab tushunish deganda, ovozli nutq (gapirish) chog‘ida qulq solish, idrok etish va fahmlash anglanadi. Umuman “nutq” deganda gapirish, tinglab tushunish, o‘qib tushunish va yozuv tushuniladi.

Ushbu metod o‘tgan asrning 60-yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining turi sifatida atroflicha tadqiq etila boshlandi. Ma’lum bo‘lishicha, gapirishni o‘rganishdan ko‘ra tinglab tushunishga erishish qiyinroq kechadi. Ushbu sohaga oid bir-biriga yaqin ikki terminni farqlash talab qilinadi: “tinglash” — qulq solish (Oz so‘zla — ko‘p tingla) va “eshitish” — eshitish sezgisi (qulq) yordamida tovushni qabul qilish (Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit). Tinglovchi tushunishga intiladi, eshituvchi tinglaganini tushunmasligi ham mumkin. Eshitish qobiliyatiga molik shaxs muayyan axborotni tushunish maqsadida so‘zlovchiga qulq soladi, ya’ni tinglash, aniqrog‘i tinglab tushunish sodir bo‘ladi. Eshitdingmi, deyilganda, tinglab tushunganlikni aniqlamoqchi bo‘linadi. Xullas, “tinglab tushunish” birikmasi o‘zgalar nutqini (jonli

tarzda yoki mexanik yozuvdagisini) idrok etish hamda mazmunini fahmlab yetish ma’nosini ifodalaydi. Tinglash va tushunish (fahmlash) vaqt e’tibori bilan bir paytda (psixologiya tilida simultan) sodir bo‘ladi, bu ikki nutqiy hodisa faqat ilmiy tahlil uchungina ajratiladi, xolos. [1,2]

Tinglab tushunishning muvaffaqiyatlari amalga oshishi uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi: “Tinglovchining o‘ziga bog‘liqlik (eshitish malakasining rivojlanganligi, xotirasi, diqqati xususiyatlari), tinglash shart-sharoiti (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda so‘zlanayotgan nutqning qancha vaqt davom etishi) va, nihoyat, qo‘llangan materialning lingvistik jihatlari (tinglovchi til tajribasiga mos kelish-kelmasligi) hisobga olinadi”.

Tinglash ko‘p qirrali va faol jarayon bo‘lib, og‘zaki muloqotni passiv idrok etish emas. Rivers va Temperleylarning fikricha, tinglab tushunish “passiv emas, balki fonologik, semantik va sintaktik imkoniyatlari haqida bilgan narsasi bilan tovushlar oqimidan xabar qurishning faol jarayonidir”.

O‘Malley va boshqalar esa tinglab tushunishni “faol jarayon” deb ta’riflagan. Odamlar eshitishning tanlangan jihatlariga e’tibor qaratadilar, parchalardan ma’no tuzadilar va eshitganlarini mavjud bilimlar bilan bog‘laydilar. Tinglash bu murakkab va faol jarayon bo‘lib, unda tinglovchi tovushlarni farqlashi, so‘z boyligi va grammatik tuzilmalarni tushunishi, urg‘u va intonatsiyani talqin qilishi, yuqoridagi jarayonlarda to‘plangan ma’lumotlarni saqlab qolishi va uni darhol talqin qilishi kerak.[2]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunning eng dolzarb masala o‘quvchiningchet tilida tinglab tushuna olmaslidir va buning oqibatida o‘quvchida o‘z fikrini bayon eta olmaslik muammosidir. Shunga ko‘ra bugun yangi innavatsion metodlar ishlab chiqish, sinfxonalarini qulay jihozlashga etibor qaratish, malakali kadrlarni etishtirish kabi masalalar bugun ta’lim muassasalari oldida turibdi.O‘qituvchi oldida esa eshitib tushunishga diqqatni yanayam yaxshi jamlab beradigan sifatli va zamonaviy metodlarni qo‘llay bilish masalasi turibdi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek audio-lingula metod xozirda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda samarali metoddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. <https://www.researchgate.net/publication/322066608 THE USE OF AUDIO-LINGUAL METHOD IN TEACHING LISTENING COMPREHENSION AT THE SECOND YEAR STUDENTS OF SMK YAPIP MAKASSAR SUNGGUM INASA>
2. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/749/533/1279?shem=sswnst
3. <https://fayllar.org/i-bob-orta-umumtalim-maktablari-boshlangich-sinf.html?page=4>